
KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK QIZG'IN OLIB BORILMOQDA

Toshloq tumani Elektr ta'minoti korxonasi xodimlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, mavsumga tayyorgarlik mobaynida tuman bo'yicha 51 dona turli quvvatdagi transformator punktlari hamda 112 kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmoqlarida joriy va mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi.

Korxonada mutaxassislari tomonidan elektr uzatish tarmoqlarini daraxt shoxlaridan tozalash hamda nosoz elektr qurilmalarini yangilash, transformator punktlarida montaj qilish ishlari sifatli yakuniga yetkazildi. Shu kunlarda tumanning Xotinqumi, Toshloq, O'zbekiston mahalla fuqarolar yig'inida ham bu borada namunali ishlar tashkil etilgan. Xotinqumi MFYda 60 dona temir-beton tayanchlari o'rnatilmoqda. Toshloq MFYda esa 1,2 km elektr tarmoqlari yangilanmoqda.

2023-09-26 15:50:25